

MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TARBIYA FANLARINI O'QITISH METODIKASI

Smetova Jumabiyke Hamidullayevna

Toshkent amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada OTMda tarbiya fanini o'qitish asosida mustaqil ta'lif topshiriqlari tuzish orqali fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning kompetensiyalarini aniqlash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lif topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda ta'lif traektoriyasi qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash, talabalarni mustaqil ta'lif asosida mantiqiy fikrlashga, ijodiy izlanish doiralarini kengaytirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogika, oliy ta'lif, tizim, tarbiya fanlari, mustaqil ta'lif, topshiriqlar tuzish, pragmatika, didaktika, metodika, gibrild, traektoriya, kompetentsiya.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ УЧЕБНЫХ НАУК, ОСНОВАННАЯ НА ИСПОЛЬЗОВАНИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ

Smetova Jumabiyke Hamidullaevna

Tashkent University of Applied Sciences is a senior teacher of the Department of Pedagogy

Аннотация. В статье на основе преподавания науки об образовании в высших учебных заведениях определяются компетенции развития умений мышления путем создания самостоятельных учебных задач, создания самостоятельных учебных задач из учебных предметов, а также выбора методов, методов и технологий, имеющих удобное и практическая образовательная траектория в работе с заданиями., описаны идеи, которые помогают студентам логически мыслить на основе самостоятельного обучения, расширять рамки творческих исследований.

Ключевые слова: педагогика, высшее образование, система, педагогические науки, самостоятельное образование, создание заданий, pragmatika, didaktika, методология, гибрид, траектория, компетентность.

METHODOLOGY OF TEACHING EDUCATIONAL SCIENCES BASED ON USING INDEPENDENT LEARNING TASKS

Smetova Jumabiyke Hamidullayevna

Tashkent University of Applied Sciences is a senior teacher of the Department of Pedagogy

Abstract. In the article, on the basis of teaching the science of education in higher educational institutions, determining the competencies of developing thinking skills by creating independent educational tasks, creating independent educational tasks from educational subjects, and choosing methods, methods and technologies that have a convenient and practical educational trajectory in working with the tasks. , ideas that help students to think logically on the basis of independent education, to expand the scope of creative research are described.

Key words: pedagogy, higher education, system, educational sciences, independent education, assignment creation, pragmatics, didactics, methodology, hybrid, trajectory, competence.

Kirish.

Jahonda globallashuv va axborotlashish jarayonlari, innovatsion ta'lif muhitida yuzaga keladigan mustaqil ta'lif topshiriqlarida, pedagogik-metodik o'zgarishlar kiritishni taqozo etib, bu boroda Tarbiya fanlarini o'qitishning ahamiyati ortib bormoqda. Tarbiya fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lif topshiriqlaridan foydalanish metodikasi pedagogik OTM muassasalarida o'qitish amaliyotida gibrild ta'linda amalga oshirilmoqda bu aynan 4+2 pedagogik amaliyoti bunga yaqqol misol bo'ladi. Tarbiya fanlarini o'qitish hamda pedagogik kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan didaktik kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari pedagogik OTMlar kesimida o'rjanilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi, ta'lif jarayonida mustaqil ta'lif topshiriqlarini tashkil qilish tizimi (bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education) tarbiya fanlarini o'qitishda kompitensiaviy yondashuvlar olib borilayotgan pedagogik oliy ta'lif muassasalarida kompetensiyalarining rivojlantirish darajasini oshirib borish zarurligini ko'rsatadi.

Dunyoda bo'lajak tarbiya fanii o'qituvchilarni, didaktik-metodik kompetentligini rivojlantirishda gibrild ta'lif modellarini samarali qo'llash mexanizmlarini rivojlantirish, metodik o'qitish vositasida tarbiya

fanining ta’limiy jarayonida, mustaqil ta’lim topshiriqlaridan foydalanish orqali, ilmiy adabiyotlarda mustaqil topshiriqlarini mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e’tibor beriladi. Jumladan, talabalarning didaktik-metodik kompetentligini shakllantirishning amaliy- va ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishning an’naviy va noan’naviy shakllarini tarbiya fani ta’lim sohalariga adaptiv qo’llash, didaktik-metodik tizimini ishlab chiqish va foydalanish muhim dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, gibrid ta’lim sharotida pedagogik oliy ta’limdagi o’qituvchilarning didaktik-metodik tayyorgarligini jadallashtirish, pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga tayyorlashning mustaqil ta’lim topshiriqlar tizimidan fopydalanish yanada dolzarblik kasb etadi. Tarbiya fanlarini o’qitish metodikasida bugunga qadar mustaqil ta’lim topshiriqlaridan foydalanish didaktik, kommunikativ, tahliliga doir keng tadqiqotlar olib borilgan. Lekin tarbiya fanlarini o’qitishda pragmatik, didaktik xususiyatlari tizimli o’rganilgan emas. O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida “ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish”[2] alohida ta’kidlangan. Zero tarbiya fanlarini o’qitishda mustaqil ta’lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o‘rinni egallaydi.

Shunga ko‘ra, pedagogik oliy ta’lim tizimida tarbiya fanlaridan mustaqil ta’lim topshiriqlar tuzish, pragmatik, didaktik, metodik jihatdan o’rganib, ularning pedagogik-didaktik qiymati va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan mazkur tadqiqot katta ahamiyatga ega.

Respublikamizda oliy ta’lim pedagogikasida tarbiya fanlarini o’qitishni samarali usullarini keng joriy etish, yangi 3- Renesans pedagogikasi sharotida talabalarni mustaqil ta’lim bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tarbiya fanlarini o’qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida kasbiy kompetensiyalardan foydalanish didaktik kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko‘zda tutilmoqda. Tarbiya fani ta’lim mazmunini o’rganishga qo‘yilgan aniq malaka talablari asosida bilim, ko‘nikma va malakalari metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatip turibdi. Bu esa, innovatsion-axborot ta’limi sharotida Tarbiya fanini o’qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga yega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar yetamiz”[1]. Shu ma’noda pedagogika oliy ta’lim tizimida “Tarbiya” fanini o’qitish zarurati, didaktik kompetensiyalarga asoslangan, xususan, tarbiyaviy bilim, ko‘nikma va malakalardan foydalanish zarurati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

O’zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi RF 60-sonli[3], O’zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2022-yil 11-maydagи “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi RF-134-son, O’zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2019-yil 29-arreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsersiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi RF-5712-son va 2020-yil 27-fevraldagi “Redagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RQ-4623-son Qarorlari, hamda 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruvi mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Tarbiya fanlarini o’qitish amaliyotida gibrid ta’limda nazariy va amaliy OTMdа o’qitilayotgan Tarbiya fanini o’qitish metodikasi, Tarbiya fanini o’qitishning innovatsion texnologiyalari, Milliy tarbiya asoslariga oid fanlarni o’qitish, uni didaktik kasbiy tayyorgarlikkacha bo‘lgan kasbiy kompetensiyalardan foydalanish va undagi muammolarini o’rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahoning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta’lim muassasalarini, jumladan, University of Pennsylvania, University of California, Northwestern University, Boston University (AQSh); Australian National University (Avstraliya); University of Nice Sophia Antipolis, University of Bordeaux (Fransiya); Oxford University Language Centre (Angliya); Peking University

, Sophia University, University of Tokyo (Yaponiya); Baki Dövlət universiteti (Ozarbayjon); Moskva davlat universiteti, Boshqirdiston davlat universiteti (RF); Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston); shuningdek, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unioversitei, Toshkent amaliy fanlar universiteti (O‘zbekiston) da olib borilmoqda.

Tarbiya fanlarini o‘qitishda mustaqil ta’lim topshiriqlaridan metodik foydalanish, tarbiya fanlarini o‘qitish tizimida, uni didaktik kasbiy tayyorgarlikkacha bo‘lgan kasbiy kompetensiyani rivojlantirish umumiyl tamoyillari, tarbiyaning jarayonlari va tarbiya metodlari masalasida dastlabki pragmatik g‘oyalalar amerikalik faylasuf va pedagog Djon Dyui[4], Skatkin M.N[28] fanlarni o‘qitilishida muammoli mustaqil ta’lim topshiriqlarini tadqiq qilgan. Uning mustaqil ta’lim topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalilanildi. Tarbiya fanlarni birliklarini izohlash, ularning pedagogik va psixologik talqini bo‘yicha Rubenshteyn S.L[24]., metodik amaliyoti bo‘yicha Leontev A.N. [14] ruhshunoslikdagi sezish, anglash kategoriyalari Ponomarev Ya.A[22]., tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarda tarbiya fanlarini o‘qitish, uni avaylab-asrash, milliy qadriyat sifatida ulug‘lashga doir ilmiy izlanishlar uzlusiz ravishda olib boriladi. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliv ta’lim muassasalari, jumladan, Mugla Üniversitesi (Turkiya), Indiana University (AQSh), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Nauchnyy sentr gumanitarnykh issledovaniy (Rossiya) kabi ko‘plab ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Kasbiy tayyorgarlikkacha bo‘lgan kasbiy kompetensiyani rivojlantirish muammolari, tarbiya fani ustida ishlash mustaqil ta’lim orqali o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari tizimli ishlab chiqilgan. (Ulyanovskiy gosudarstvennyy universitet); bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education); pedagogika fanlarini o‘qitishda kompitensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan (Payomi Donishgohi Milliy Tochikiston), (Janubiy Qozog‘iston pedagogika universiteti oliv ta’lim muassasalarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlanatish ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan. Jahon ta’lim tizimida interaktiv o‘qitish tizimidan foydalanish (interactive E-learn) bo‘yicha tadqiqotlar yetakchi oliv ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), interaktiv ta’limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), pedagogik ta’limga oid muammolari (Baku: Azerbaycan Dövlet Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil ta’limni tashkil etish jarayoni, bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik foydalanganligini aniqlash va baholashning nazariy, konseptual asoslari, bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha R.X.Djurayev [9]., N.A.Muslimov [17]., O‘.Q.Tolipov [29]., Sh.S.Sharipov [31]., Q.T.Olimov [24]., O.A.Qo‘ysinov [23] va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari olimlari O.A.Abdulina [5]., V.P.Bespalko [7], Yu.S.Mozdokova [10]., E.F.Zeer [12]., I.A.Zimnyaya [13]., A.S.Markova [15]., S.N.Mironenko [18]., V.A.Slastenin [27]., M.N.Skatkin [28], va boshqalar tomonidan pedagogik oliv ta’limda kadrlarni kasbiy tayyorlashning umumnazariy asoslari, bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda ta’lim mazmunini loyihalash hamda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, integrativ ta’lim, o‘qitishning metodik tizimi konsepsiysi va modelini yaratish xususiyatlari, kasbiy tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Xorij mamlakatlarning B.Blum, B.Skinner, R.Mohan, G.Kulanthaivel, H.Miuakawa kabi olimlarning tadqiqotlarida ta’limda integratsiya, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy kompetentlik masalalari, kasbiy-pedagogik rivojlanganlik muammolari, pedagogik texnologialardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator pedagogik turkum fanlarni o‘qitish metodikasiga doir ilmiy metodik tadqiqotlar olib borildi. Pedagogik turkum fanlarni tizimlashtirishda uzviylik va uzlusizligini ta’minlash borasida pedagogik-metodik yondashuv, mustaqil ta’lim topshiriqlarni ham uzlusiz ta’lim tizimi uchun uzviylik tamoyili asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi tavsiflandi. M.Quronov hammuallifligida yaratilgan Tarbiya darsliklarda umumiy o‘rtta ta’lim tizimida birinchi marta mustaqil topshiriqlaridan foydalanishni kuzatishimiz mumkin[4]. “Tarbiya” fani darsliklarda, asosan, mantiqiy savollardan foydalanib keligan.Demak OTMga kelayotgan yoshlar bugungi yangi darsliklarda berilgan topshiriqlardan xabardaor.

O‘quv materiallarini pedagogik ta’lim jarayonida o‘rganishning didaktik-metodik yondashuviga xos tarzda N.Muslimov[17], M.E.Axmedova [6]., L.Zaripov [11]., kabi pedagogika fanining o‘qitish metodikasiga munosib

darajada hissa qo'shgan olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar muayyan darajada e'tibor qaratilgani kuzatiladi.

Rus pedagoglari S.L.Rubenshteyn [24], A.N.Leontev [14] ta'lim jarayonida umumiy pedagogik-psixologik yondashuvular asosida amaliyotga mustaqil ta'limni tatbiq etishni taklif etadi.

J. A. Ponomarev [22] va O.R Roziqov [26] kabi olimlar mustaqil ta'lim topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o'rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, A.N.Leontev [14] "mustaqil ta'lim topshiriq" tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: "Mustaqil ta'lim topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo'yilgan aniq maqsaddir". M.E.Axmedova [6] pedagogik ta'lim mazmunida ilmiy nazariy va metodik asoslarini o'rgatishni nazarda tutilishini, mantiqiy savol berish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Jahon pedagogikasida mustaqil ta'lim topshiriqlarining metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug'ullangan. Shuni ta'kidlash joizki, G'arb pedagogikasining didaktik jarayoni amaliylikka asosiy e'tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g'oyalar Amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui [12] tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. J.Russell [25]., G.Owens [21]., mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda ta'lim traektoriyasi qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash asosida ishlashni tavsiya etadi.

Pedagogik olyi ta'lim tizimida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o'rganish va pragmatik mazmundagi o'quv topshiriqlarining tarbiya ta'limidagi o'rnini belgilash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish, uning dastur talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularni o'qitish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish muhim ahamiyatga ega. Tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, transfer metodlarni ishlab chiqish va model xarita mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning kompetensiyalarini aniqlash, tarbiya fanlarining oldida turgan dolzarb muammolardir.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, tarbiya fani pedagogik ta'lim mazmunini, o'qitish metodikasining submodulini nazariy va amaliy holati asosida didaktik ta'minotini ishlab chiqishga doir ilmiy taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi, gibrildi ta'lim sharotida tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlar tuzish, pedagog-o'qituvchilarining kompetentligidan foydalanishning pedagogik-didaktik kompetentligini rivojlantirishning konseptual asoslari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi. Pedagogik olyi ta'limda tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qitish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida, mustaqil ta'lim topshiriqlar tuzishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishga ongli yondashish, didaktik, o'qish va o'rganishning tizimli tavsiif kasb etishi, tarbiya fanini o'qitishda mantiqiy savol va topshiriq tushunchalariga oid komponentlar bilan mustaqil ta'lim topshiriqlar tuzishning ichki va tashqi yo'nalishlardagi integratsiyasini real ta'limiy sharoitlarda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. –14-b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7 fevral. PF-4947-sон.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60-сон. 2022-yil 28-yanvar. –www.lex.uz

M. Qur'onov., Ye.Risikova., O.Tegay., O.Usmanova., S.Hafizov. Tarbiya 6-sinf darsligi. T.: G.Gulom nomidahi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2020y.-109 b.

Абдуллина О.Л. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования: для пед. специальностей высших учебных заведений. – 2-изд., перераб. и доп. – М.: Просвещение, 1990. – 141 с.;

Axmedova M.E Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari pedagogika fanlari doktori uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati T.:2023-54-b.

Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: "Просвещение", 1995. – 336 с.;

Джон Дюи. Общество и его проблемы Жохн Дешей. Тхе Публис анд итс Проблемс. Денвер, 1927. / Дж. Дюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н.

Косилова. — М., 2002.

Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Т.: УзНИИПН им Т.Н. Кари-Ниязова, 1995. — 43 с;

Моздокова, Ю.С. Коммуникативно-деятельностный подход к интегратции инвалидов: социально-культурный аспект: дисс.... д-ра пед. наук: 13.00.05. — Москва, 2006. - 555 с.;

Zaripov L.R.Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish pedagogika fanlari doktori uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati T.:2023-60-b.

Зеер, Э.Ф. Психология профессионального образования – М.: Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО “МОДЕК”, 2003. – 480 с.;

Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования – 2003. № 5. С. 34-42.;

Леонтьев А.Н. Проблем развития психики. – М.: Педагогика, 1972.-576 с.

Маркова А.К. Психология профессионализма.–М.:Знание,1996.–308 с.;

Магзумов П.Т. Педагогические основы трудового становления личности школьников: Автореф. ... докт.пед.наук. – Т.: 1991. — 41 с.;

Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... ped. fan. dokt. – Т.: 2007. – 315 b.;

Мироненко С.Н. Интегратция педагогического и технического знания как условие подготовки педагога профессионального обучения к диагностической деятельности. Дисс. ...канд.пед.наук. – Череповец.: 2014. – 164 с.;

Miyakawa H., Industrial Technology Education. For All. Aichi University of Education. Japan, 2004.;

Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Dis. ... ped. fan. dokt. – Т.: 2005. – 286 b.;

Owens, G. The Modele in “Universities Quarterly”// Universities Quarterly, Higher education and society. - Vol. 25. - № 1. - P. 20-27.

Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика, 1976. -280 с.

Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.

Рубенштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – М.: Педагогика, 1976. - 416 с.

Russell, J.D. Modular Instruction // A Guide to Design, Selection, Utilization and Evolution of Modular Materials. — Minneapolis, Minnesota: Burges Publishing Company, 1974. — 164 p.;

Rozikov O.R. Teoreticheskie osnovi optimalnogo primeneniya sistemi uchebnix zadach v obuchenii i shkolniki (na materialax gumanitarnix predmetov). Avtoreferat diss...dok. ped. nauk. – Tbilisi, – 1986. -50 s.

Slastenin V.A. Pedagogika: uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnix zavedeniy. – M.: 2000. – 512 s.;

Skatkin M.N. Problemi sovremennoy didaktiki. - M.: Pedagogika, 1984. –108.

Tolipov U.K. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ...ped.fan.dokt. – Т.: 2004. – 314 b.

Turdiqulov E.O., Djuraev R.X. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Т.: 2009. – 176 b.

Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilagini shakllantirishning pedagogik sharoitlari: Diss. ... ped.fan.nom. – Т.: 2001. – 140 b.